

Hamyonbop tarzda sayohat qilish mumkin emas?

Uzbekistan Airways buning aksini isbotlaydi

2023 20 Sentabr

2023-yil 21-sentabr kuni “Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida Toshkentdan Ostona, Boku, Grozniy, Nyu-York, Omsk, Seul, Ufa, Sharja va ortga qaytuvchi yo’nalishlar uchun e’lon qilingan jadval tugaguniga qadar barcha aviaqatnovlarga tariflar narxidan 20% chegirma e’lon qilamiz.

Aksiya bir kun davomida – 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi va aviachiptalarni www.uzairways.com sayti, mobil ilova, Uzbekistan Airways Sales filiali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 21-sentyabr soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo’lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo’lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig’imlarga nisbatan qo’llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 21.09.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo’llanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya’ni chegirma qo’llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo’llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e’lon qilingan

- berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
 8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Ostona, Boku, Grozniy, Nyu-York, Omsk, Seul, Ufa, Sharja va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.